



Chakana savdo tovar aylanmasi 2018 yilning yanvar oyida 690,4 mldr so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 2,6 foizga oshdi, shundan umumiy ovqatlanish aylanmasi 12,6 mldr so'mni (o'tgan yilga nisbatan 91,8 foizni) tashkil etdi. Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 9,1 foizni tashkil etdi. Iste'mol tovarlari, tamaki mahsulotlari, benzin va alkogolli ichimliklarga bo'lgan talabning oshishi yirik korxonalarining o'sish sur'atini o'tgan yilning shu davriga nisbatan 47 foizga ko'payishiga olib keldi.

2018 yil yanvar oyida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati (mldr so'm, foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Samarqand shahri (27,4 foiz), Urgut tumani (13,6 foiz), Pastdarg'om tumani (8,0 foiz), Kattaqo'rg'on shahri (5,7 foiz) va Bulung'ur (4,8 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatdi.

Hududlar kesimida jami chakana savdo tovar aylanmasining ulushi (foizda)



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi aholi jon boshiga 187,3 ming so'mni tashkil etdi (2016 yil yanvar oyida 152,5 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Kattaqo'rg'on shahri (457,6 ming so'm), Samarqand shahri (359,6 ming so'm) va Urgut tumanida (197,8 ming so'm) kuzatildi.

Ovqatlanish tashkilotlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 12601,5 mln. so'mni tashkil etdi. Chakana savdo tovar aylanmasining umumiy hajmida ovqatlanish korxonalarining ulushi 1,8 foizni tashkil etdi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

Shahar va tumanlar nomi	<i>Ming. so'm</i>	O'tgan yilning shu davriga nisbatan, <i>foizda</i>
Samarqand shahri	359,6	107,7
Kattaqo'rg'on shahri	457,6	95,3
Bulung'ur tumani	185,5	97,9
Jomboy tumani	115,6	99,5
Ishtixon tumani	114,2	98,8
Kattaqo'rg'on tumani	120,9	98,1
Narpay tumani	134,2	98,5
Nurobod tumani	196,5	98,2
Oqdaryo tumani	119,5	99,4
Payariq tumani	119,8	98,6
Pastdarg'om tumani	164,9	102,0
Paxtachi tumani	184,3	96,9
Samarqand tumani	121,5	101,9
Tayloq tumani	113,6	99,1
Urgut tumani	197,8	97,5
Qo'shrabot tumani	194,2	97,4


Viloyatda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi 187,3 ming so'mni va o'tgan yilning shu davriga nisbatan 100,7 foizni tashkil etdi, shundan Samarqand shahri (359,6 ming so'm) o'tgan yilga nisbatan 107,7 foizni, Kattaqo'rg'on shahri (457,6 ming so'm) 95,3 foizni, Jomboy tumani (115,6 ming so'm) 99,5 foizni, Samarqand tumani (121,5 ming so'm) 101,9 foizni, Urgut tumani (197,8 ming so'm) va o'tgan yilga nisbatan 97,5 foizni tashkil etdi.

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI

Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 99,6 foizni va umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining 90,9 foizini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlik umumiyl tovar aylanmasining 441,2 mln. so'mi uyushmagan savdo hisobiga to'g'ri keldi. Ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 63,9 foizni tashkil etdi .

**Kichik tadbirkorlikning umumiyl chakana tovar aylanmasidagi
ulushi, foizda(%)**



Kichik va mikrofirmalarning chakana tovar aylanmasi (186,0 mlrd. so'mni) o'tgan yilga nisbatan 110,4 foizni va umumiyl chakana savdo tovar aylanmasining 26,9 foizni tashkil etdi.